


2019-yilning yanvar-iyul oylarida Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalaridan 2611,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,3% ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 2,4% ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 90,6% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 5,4% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 1,6% ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar-iyul oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, % da



2019-yilning yanvar-iyul oylarida Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 61,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,4 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)





2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2365,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,6 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 29,4 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 16,9 %, boshqa nometal meniral mahsulotlar ishlab chiqarish 11,5 %, kiyim ishlab chiqarish 7,0 %, tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

2019 yil oxirgi oylarida sanoatning ishlab chiqarish indeksi, % da



Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2019 yil yanvar-iyul oylarida	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari	O'sish sur'ati, foizda
39 841	<p>Paxta chigiti, t.</p> 	95,9
12 278	<p>Paxtadan yigirilgan ip, t.</p> 	257,8
34 277,1	<p>Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.</p> 	105,6
1 664	<p>Trikotaj yoki qulda to'qilgan ustki kiyimlar, ming dona</p> 	68,0

2019 yil
yanvar-iyul
oylarida

Ishlab chiqarilgan
sanoat mahsulotlari

O'sish sur'ati,
foizda

O'simlik yog'i (tozalangan), t.

7 288



83,5

Paxta tolasi, t.

24 324



87,6

Porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun
qo'rg'oshinli akkumulyatorlar, ming dona

458,3



112,3

Mashinada yoki qo'lda tuqilgan trikotaj polotnolar, t.

1 638



167,3

Paxta linti, t.

2 053



85,6

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Joriy yilning yanvar-iyul oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 141,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,4 %ni) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 111,3 % ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 43,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizatsiya qilish 1,2 % ni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash esa 0,4 % ni tashkil etdi.




Jizzax viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-iyul oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 2611,5 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 104,3 % ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




2019 yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarish indeksi, % da



Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha jami sanoatda hududlarning yuqori ulushi Jizzax shaxri (53,6 %) va Do'stlik (11,2 %), Paxtakor (6,0 %), Sh.Rashidov (5,4 %), Zomin (5,2 %), Forish (3,8 %) tumanlariga to'g'ri kelgan.


2019 yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rni, % da




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1179,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 104,1 % ni, jami sanoatdagi ulushi esa 45,2 % ni tashkil etdi.

hajmi, mlrd. so'm




2018 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlarining ulushi 66,7% dan 2019 yilning yanvar-iyun oylarida 69,0 % ga ko'paygan.



Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1921,7 ming so'mni tashkil etgan bo'lib, o'z navbatida Jizzax shaxrida 7985,0 ming so'mni, Do'stlik tumanida 4526,0 ming so'mni, Paxtakor tumanida 2124,2 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1512,8 ming so'mni tashkil etadi.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari, ming so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan 95 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan 693,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,6% ni tashkil etdi.

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi, mlrd. so'mda




Xorijiy investitsiyalari ishtirokidagi sanoat korxonalarining umumiy sanoat hajmidagi ulushi, % da



Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida 1621,3 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 62,1 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi, % da




Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 2019 yil 1 avgust holatiga 2736 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 952 tasi Jizzax shaxrida, 585 tasi Sharof Rashidov, 243 tasi G'allaorol, 208 tasi Zomin, 119 tasi Forish, 105 tasi Zarbdor, 99 tasi Paxtakor, 94 tasi Do'stlik, 81 tasi Baxmal, 79 tasi Mirzacho'l, 67 tasi Zafarobod, 57 tasi Arnasoy, 47 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 avgust holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni



2019 yil 1 avgust holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Sanoat statistikasi bo'limi
telefon: (71) 230-83-47